

**Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni interfaol usullar orqali
o'rgatish**

To'lanboyeva Oydinoy Murodjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xorijiy tilni o'rganish qobiliyati shakllantirish hamda dars jarayonini interfaol usullar orqali yanada qiziqarli qilish bo'yicha tavsiya va metodlar misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Simon says", interfaol usullar, tushunish mahorati, "story time", qofiyalar va qo'shiqlar, amaliy faoliyat.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish DTS da ko'rsatilgan "A" bosqich, ya'ni boshlang'ich sinflarni o'z ichiga oladi. Demak, xorijiy til o'qituvchisi 1-2-3-sinflarga dars o'tish jarayonida ustalik bilan interfaol usullardan foydalanishi, dars jarayoni qiziqarli va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan yuqori sinf o'quvchilarining til o'rganish jarayoni tubdan farq qiladi. Chunki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tabiatan qiziqqon bo'lganliklari sababli ular xorijiy tilni turli xil qiziqarli o'yinlar bilan tezroq o'zlashtirishlari hammamizga ma'lum.

Bu o'rinda o'qituvchilar xorijiy tilni o'rgatishda turli xil qiziqarli usullardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, ingliz tili o'qituvchilarining "Simon says" ya'ni "Simonning aytishicha" nomli qiziqarli o'yindan dars davomida foydalanishlari yosh bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va ingliz tilini eshitish orqali o'rganish mahoratini shakllantirishda yordam beradi. Bu o'yinda o'quvchilar "Simon says" deb boshlanuvchi buyruqlarni ingliz tilida eshitib, bu

buyruqlarni bajarishlari kerak bo'ladi. Misol uchun, o'qituvchilar "Simon says jump up and down" (" Simon tepaga va pastga sakra deb aytadi") deb buyruq beradi. O'quvchilar esa berilgan buyruqni tushunib tepaga va pastga sakrashlari kerak bo'ladi. Bu o'quvchilarning tushunish mahoratini yanada oshiradi.

Bundan tashqari o'quvchilarning o'qish va gapirish mahoratini yanada shakllantirish uchun " Story time" (" Hikoya vaqti") nomli interfaol usul ham yordam beradi. Bu usulda o'qituvchi ma'lum bir rasimga boy bo'lgan kichkina hikoyani bolalarga o'qib beradi. Hikoya hammaga tushunarli bo'lgandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning tushunish mahoratini sinash maqsadida hikoyaga oid turli xil qiziqarli savollar beradi. Bu interfaol usul o'quvchilarning ingliz tilida gapirish mahoratini hamda tushunish qobiliyatini shakllantirishda yordam beradi.

Bilamizki, hamma vaqt qo'shiq orqali xorijiy tilni o'rganish nafaqat qiziqarli, balki foydali ham bo'lib kelgan . Shu jumladan, ingliz tilini o'rganishda bu usul o'quvchilarga samarali ta'sir etadi. Misol uchun, o'qituvchi bolalarga mashhur inglizcha qofiyalar yoki qo'shiqlarni o'rgatadi. Ayni paytda o'qituvchi qo'shiqlarni interaktiv va qiziqarli qilish uchun harakatlar yoki rekvizitlardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan energiyaga boy bo'lganliklari uchun ular bir xillikdan tez zerikadilar. Lekin ularga qo'shiqlar har xil qiziqarli usullar bilan o'rgatilsa, bu ularda ingliz tilini o'rganish bo'yicha bo'lgan qiziqishlari so'nmasligiga hamda bolalarga talaffuz, ritm va so'z bo'yigini mashq qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi tilni amaliy tajriba orqali ham o'rgatish mumkin. Bu usulda, yosh bolalar pishirishi yoki tayyorlashi mumkin bo'lgan oddiy retseptlar tanlanadi, masalan, mevali salat. Salat tayyorlayotganda o'qituvchi ingredientlar haqida gapiradi va ingliz tilida ba'zi ko'rsatmalar beradi. Ushbu faoliyat til o'rganishni amaliy tajriba bilan birlashtiradi, hamda dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'qitishda turli xil interfaol usullardan foydalanish

tavsiya etiladi. Bu ularni yoshlikdan til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ungbayeva.M.M. Maktabgacha bolalarga chet tilini o'qitishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari//. "Науки об образовании", 2022
2. Zubaydova. N.N. Vocabulary task//. "Kasbiy fanlar metodikasi",2016.
3. Zubaydova. N.N. The teaching of English for specific purposes//. "Scientific researchers for development future International conference Proceedings",2019.
4. <https://lex.uz/docs/-5705038>